

**KANDAKOR USTA, YORQINJON AXMADALIEVNING
“IQTIDOR MARKAZI” DAGI FAOLIYATI****Rahimberdiyev Abdulaziz Umidjon o'g'li**

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
yo'nalishi 4-kurs talabasi.

Qosimova Nilufar Muratjon qizi

Qo'qon Davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7620716>

Annatatsiya: Milliy hunarmandchiligimizni o'rganish, o'rgatish huddi o'zbek millatining qadryatiga aylangan deyish mumkin. Yurtimizda qo'ligul hunarmandlar ko'p bo'lib, ular orasida imkoniyati cheklangan yoshlarni qo'llab-quvatlab, o'z hunarlarini o'rgatib kelyotganlari ham topiladi.


Kalit so'zlar: hunarmand, kandakor, milliylik, iqtidor, rassom, maktab.

Oltin topmaguncha o'rgangil hunar,
Hunarning oldida xasdir oltin-zar.

Abdurahmon Jomiy.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va uni yo'q bo'lib ketgan turlarini qaytadan tiklash, rivojlantirish, davlat qo'li bilan qo'llab-quvvatlanishi, hunarmandchilik maktablarini ochib yoshlarga hunar o'rgatilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, bularning barcha - barchasi milliy o'zligimizni anglashga bo'lgan intilish, mahnaviyatimiz poydevorining mustahkam ekanligidan dalolat beradi. Qo'qon shahrida manashunday jonkuyar, fidoiy, yoshlarni bo'sh vaqtida milliy hunarlarimizni hech qanday mablag' talab etmay, o'rgatuvchi insonlar yo'q emas.

Yoshligigan ziyoli oilada, badiiy san'at va kitoblar orasida voyaga yetgan Yorqinjon Axmadaliev Tursunalievich o'zining insonlarga nisbatan mehribon, serharakat doim insoniyatga foydasi tegadigan yangiliklar yaratishga intiluvchan va milliy xunarmandchiligimizning yangicha uslubini yaratib ijod qilayotgan usta yoshlar ko'nglidan chuqur joy olgan. U kandakorlik san'atining yangi yo'nalishini "Iqtidor" markazida nogiron, kam taminlangan, lekin san'atga oshno qalblilarga o'rgatib kelmoqda.(1-rasm).





1-rasm. Kandakorlik. Yorqinjon Axmadaliev.

Ustaning dadasi Tursunali Axmadaliev Axmadalievich 1940 yil 4-avgustda Qo'qon shaxrida tug'ulgan. Bu inson ziyoli va san'atshinavanda bo'lib, Toshkent shahridagi Benkov nomli Respublika rassomlik bilim yurtida tahsil oldi. So'ng Maskva shahridagi "Dizayn shkola" da ta'limni davom ettirdi. Bilim olish davri tugagach, Ozabayjon davlatining Baku shahrida loyihachi rassom bo'lib ishladi. Tursunali Ahmadaliev tasviriy san'atda o'ziga hos yo'nalish yaratib, askiyachilar so'z orqali yaratgan asarlarini, bu inson ranglar jilosi ostida qog'ozlarda aks ettiradi, yahni tub mazmunga ega bo'lgan hajviya rasmlar chizadi. (2, 3-rasmlar).



2-rasm. Tursunali Ahmadaliev ijodidan.

Akademik Tursunali Ahmadaliev muhtasham san'ati ortidan "O'zbekiston Badiiy Akademiyasi ahzosi", "Nuroniylar fahriysi", "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan mahdaniyat hodimi" kabi unvonlarga sazovor bo'lgan. Qo'qon badiiy ishlab chiqarish korxonasida bosh rassom bo'lib ishlagan. Hoirgi kunda O'zbekiston badiiy akademiyasi Qo'qon bo'limi raisi bo'lib faoliyat yuritmoqda.



Serqirra ijodkor o'zining tashabbuskorligi va yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkillash, nogironlar san'atini olamga tanitish maqsadida 1999 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi huzuridagi NNT va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvatlash jamoat fondi yordamida "Iqtidor" markazini tashkillagan. Bu markazni bunyod etilishida turmush o'rtog'i Axmadaliev O'ktamoy Ibrohimovna jonbozlik ko'rsatgan. O'ktamoy aya 1946 yil 6-yanvarda tug'ilgan. Majburiy o'rta tahlim tugagandan so'ng Qo'qon pedagogika institutining "Rus tili va adabiyot" fakultetini tamomlagan. Dastlab maktabda, keyin Qo'qon shahar xokimyatining "Yodgorliklarni saqlash" bo'limida boshliq bo'lib ishladi.



3-rasm. Tursunali Axmadaliev ijodidan.

San'at shaydosi, qo'li gul gilamdo'z, serharakat ayol nafaqaga chiqqanda ham halqi uchun harakatda bo'lib, nogiron yoshlarga xunar o'rgatish maqsadida "Iqtidor" marazi uchun loyiha tayyorladi.(3-rasm). Loyiha tasdiqlanib markaz barpo etildi. SHunday olijanob insonlarning farzandi kandakor usta Yorqinjon Axmadaliev 1964 yil 14-iyunda Qo'qon shahrida tavallud topgan. Qo'qon shahridagi 13-maktabda tahlim olgan. San'at ichida katta bo'lgani uchunmi, o'zining kuchli qiziqishi boisdanmi 1979-1983 yillari poytaxtdagi Benkov nomidagi Respublika rassomlik bilim yurtining "Yog'och o'ymakorligi"



yo'nalishini tomomladi. Keyin xarbiy xizmatga borib keldi va 1986 yildan Qo'qon Badiiy ishlab chiqarish korxonasida bezakchi rassom lavozimida ishladi.



4-rasm. O'ktamoy Axmadalievga ijodidan.

Korxonada ishlab yurgan vaqtida, hamkasbi, kandakor usta Muhammadali akadan metallga gul solishni o'rgandi. O'zi yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik sir - asrorlarini bilganligi sabbdan, kandakorlik san'atini juda tez o'rganib oldi. Yorqinjn Ahmadaliev bu yo'nalishga yangilik kiritib, misdan ko'ra arzonroq hamda yumshoqroq bo'lgan metall, alyuminga gul ishlab, uni ko'zli munchoqlar bilan bezatib, insonlar uchun kerakli buyumlar yasashni yo'lga qo'ydi.(5-rasm).



5-rasm. Yo.Axmadaliev. SHkatulka.

Bundan ming yillar chamasi eshik, derazalarning oshiq - moshiqlarini kandakorlik san'ati asosida bezatilgan metaldan yasalar edilar. Bugungi kunga kelib bu san'at yo'qolib ketgan bo'lib, Samarqand shahrining bahzi obidalarida uchratish mumkin edi. Qo'qon shahar Ma'daniyati muzeyi raxbari Manzuraxon Mansurova bu obidalariga tashrif buyurganda ko'rganligi sababli kandakor usta Yo.Ahmadalievga shu san'at turini qayta tiklashni maslaxat beradi. Usta buni chuqur o'rgandi va hayotga tadbiiq etdi. San'at shaydolariga bu uslub juda yoqdi. (6-rasm).






6-rasm. Yorqinjon Axmadaliev. Xontaxta.

Kandakor usta asosan, tovoq, eshik, deraza, sandiq, xontaxta kabilar uchun metallardan bezak tayyorlaydi. SHunday nafis ishlari inobatga olinib, 1993 yil "O'zbekiston Badiiy Akademiyasi a'zosi" unvoni berilgan. Usta ishlari bilan ko'plab ko'rik tanlovlarda qatnashib, jumladan, 2000 yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Farg'ona kunlari" ko'rik tanlovida qatnashib, viloyatdan kelgan barcha xunarmanlar ichida Yo. Axmadaliev g'olib chiqqan. 2002 yilda esa Badiiy Akademiyaning "Ixtiyoriy ijod uchun" kumush medali bilan taqdirlangan.

Iqtidor markazida yoshlar kandakorlikdan tashqari rangtasvir, naqqoshlik, badiiy gilam to'qish san'atlarini ham o'rganadilar. Markaz ustozlari barchasi ko'ngillilar bo'lib, hech qanday ish haqisiz, chin ko'ngildan o'z xunarlarini yoshlarga o'rgatadi. Bu istedodli yoshlar nogiron bo'lishiga qaramay, o'z maqsadi yo'lida ijoddan to'xtashmaydi. SHuning uchun ham ko'plab tanlovlarda qatnashib faxrli o'rinlarni egallashmoqda. SHu o'rinda O'zbekiston kelajagi buyuk davlat deging keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Nilufar, Kasimova. "IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY." Open Access Repository 9.11 (2022): 88-92.
2. Solijon o'g'li, Qosimov Barkamol. "CARPENTRY SCHOOLS-APPLIED ART FOUNDATION OF DEVELOPMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.11 (2022): 945-949.



3. Kasimova, N. M. K. (2022). Representatives of the Kokan School of Coppersmithing, Glorifying the National Craft. RegiINTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT, 4(11), 86-90.
4. Nilufarkhan, Q., & Dildorakhan, A. (2022, May). THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE HISTORY OF APPLIED ARTS OF UZBEKISTAN. In E Conference Zone (pp. 12-13).
5. Muhammedovich, Sharabayev Ulug'bek. "Problems of Teaching Drawing at School." International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development 4.1: 35-39.
6. Qosimova, Nilufar. "5 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNI RASM CHIZISHGA O'RGATISH METODIKASI." (2022).
7. Nilufar, K. (2022). IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY. Open Access Repository, 9(11), 88-92.
8. Qosimova, N. (2022). IN FINE ARTS AND DRAWING LESSONS" USING CASE STAGE EDUCATIONAL TECHNOLOGY. Scienceweb academic papers collection.

